ISSN: 1994-4233
E-ISSN: 2181-1237
DOI: 10.36078

Filologiya Masalalari
Philology Matters

Mahmudxo‘ja Behbudiy
tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlanadi

ILMIY-METODIK
JURNAL

2025/3

MUNDARIJA

Ibrohim G‘AFUROV. Buyuk Behbudiy shaxsiyati 6
Hamidulla BOLTABOYEV. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Turkiston jadidchilik harakati.....12
Halim SAIDOV. Behbudiy fenomenining jadidlik harakatiga ta’siri. 22
Zaynabidin ABDIRASHIDOV, Nodira EGAMQULOVA. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston jadidchiligi shakllanishi va rivojidagi o‘rni 36
Bahodir KARIMOV. Behbudiy – fikr islohotchisi 56
Uzoq JO‘RAQULOV. Behbudiyning tanqidiy qarashlari.....63
Sanobar TO‘LAGANOVA. Milliy islohotlar muallimi.....68
Gulnora NISHONOVA. “Oyina” jurnali nashri va harbiy senzura muammolari....77
Nilufar NAMOZOVA. Behbudiy va milliy matbuot 87
Ra’no MULLAXO‘JAYEVA. Naim Karimov tadqiqotlarida Mahmudxo‘ja Behbudiy shaxsiyati va ijodiy merosi.....98
Sunnatillo RAXMONOV. Mahmudxo‘ja Behbudiy – Vatan ozodligi yo‘lida shahid bo‘lgan ma’rifatparvar 106
Normurod AVAZOV. “Padarkush” dramasi: dastlabki nashr va tabdillar tahlili ..122
Dilafruz RAXMATOVA. Behbudiyning funksional uslub shakllanishidagi xizmatlari 130

СОДЕРЖАНИЕ

Ибрахим ГАФУРОВ. Личность великого Бехбуди 6
Хамидулла БАЛТАБАЕВ. Махмудходжа Бехбуди и джадидское движение в Туркестане 12
Халим САИДОВ. Влияние феномена Бехбудия на движение джадидов 22
Зайнабиддин АБДИРАШИДОВ, Надира ЭГАМКУЛОВА. Роль Махмудходжи Бехбуди в формировании и развитии тюркестанского джадидизма 36
Бахадир КАРИМОВ. Бехбудий – реформатор мысли 56
Узок ЖУРАКУЛОВ. Критические взгляды Бехбуди 63
Санабар ТУЛАГАНОВА. Учитель национальных реформ.....68
Гульнара НИШАНОВА. Издание журнала «Ойина» и проблемы военной цензуры 77
Нилюфар НАМАЗОВА. Бехбудий и национальная пресса.....87
Раъно МУЛЛАХОДЖАЕВА. Личность и творческое наследие Махмудходжи Бехбуди в исследованиях Наима Каримова 98
Суннатилла РАХМАНОВ. Махмудходжа Бехбуди – просветитель, ставший мучеником на пути к свободе родины.....106
Нармурад АВАЗОВ. Драма «Отцеубийца»: анализ первого издания и его адаптаций.....122
Диляфруз РАХМАТОВА. Вклад Бехбуди в формирование функционального стиля 130

CONTENTS

Ibrohim GAFUROV. Personality of the Great Behbudi 6
Hamidulla BOLTABOYEV. Mahmudkhoja Behbudi and the Jadid Movement in Turkistan 12
Halim SAIDOV. The Influence of the Behbudi Phenomenon on the Jadid Movement .. 22
Zaynabidin ABDIRASHIDOV, Nodira EGAMQULOVA. Mahmudkhoja Behbudi's Role in the Formation and Development of Jadidism in Turkistan 36
Bahodir KARIMOV. Behbudi – Reformer of Thought 56
Uzoq JORAQULOV. Behbudi's Critical Views 63
Sanobar TULAGANOVA. The Teacher of National Reforms 68
Gulnora NISHONOVA. The Publication of the Journal of "Oyina" and the Problems of Military Censorship 77
Nilufar NAMAZOVA. Behbudi and the National Press 87
Rano MULLAKHOJAYEVA. Personality and Creative Legacy of Mahmudkhoja Behbudi in Naim Karimov's Research 98
Sunnatillo RAKHMONOV. Mahmudkhoja Behbudi – An Enlightener Martyred for the Freedom of the Homeland.....106
Normurod AVAZOV. The Drama *Patricide*: Analysis of the First Edition and Its Adaptations 122
Dilafruz RAKHMATOVA. Behbudi's Contribution to the Formation of Functional Style 130

Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233
Uzbekistan State World Languages University

2025 Vol. 53 No. 3
Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi
DOI: 10.36078/987655503

Received: August 13, 2025
Accepted: September 23, 2025
Available online: September 25, 2025

Zaynabidin Abdirashidov

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Anqara Hoji Bayram Vali universiteti
Anqara, Turkiya

Nodira Egamqulova

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Termiz davlat universiteti
Termiz, O‘zbekiston

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TURKISTON JADIDCHILIGI SHAKLLANISHI VA RIVOJIDAGI O‘RNI

ANNOTATSIYA

2025-yili tavallud sanasining 150 yilligi keng nishonlanayotgan Mahmudxo‘ja Behbudiy O‘zbekistonning yaqin tarixida chuqur iz qoldira olgan va butun umrini millatni uyg‘otish g‘oyasiga bag‘ishlagan, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatini safarbar etgan buyuk shaxs, Turkistondagi jadidchilik harakatining g‘oyaviy rahnamosi va shubhasiz, yetakchisi sifatida e’tirof etilishga loyiq. Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining rahbari sifatida xalq uchun manfaati bor amaliy ishlar bilan qizg‘in shug‘ullandi: jadid maktablarini tashkil etishda bosh-qosh bo‘ldi, teatr san’atiga asos soldi, gazeta-jurnal chop qildi, nashriyot hamda kutubxona tashkil etdi. U siyosiy, ma’rifiy-madaniy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda birdek xizmat qildi. E’tiborlisi, Behbudiy o‘z faoliyat nuqtalarini bir-biri bilan tutashtirgan holda amalga oshirgan.

Ushbu maqolada Behbudiyning boshlang‘ich ta’limni ona tilida berishga mo‘ljallangan milliy maktablarning umummilliy institutini yaratishga qaratilgan dasturi; Rossiya musulmonlari orasida yoyilgan jadidchilik-yangilanish harakatining asoschisi Ismoil Gasprinskiy bilan muntazam

Zaynabidin Abdirashidov

Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor
Ankara Hacı Bayram Veli University
Ankara, Turkey
E-mail: zaynabidin.abdirashidov@hbv.edu.tr
ORCID iD: 0000-0002-6869-4315

Nodira Egamqulova

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Associate Professor
Termez State University
Termez, Uzbekistan
E-mail: nodiraegamkulova1@gmail.com
ORCID iD: 0000-0003-0736-9065

MAHMUDKHOJA BEHBUDI’S ROLE IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF TURKISTAN JADIDISM

ABSTRACT

In 2025, the 150th anniversary of Mahmudkhoja Behbudi’s birth is being widely celebrated. He was a great historical figure who left a profound mark on the recent history of Uzbekistan, devoting his entire life to the idea of awakening the nation. Behbudi dedicated all his strength and abilities to rescuing his people from ignorance and backwardness, striving to lead the country out of darkness. He is rightfully recognized as the ideological leader and, without doubt, the foremost figure of the Jadid movement in Turkistan. As the head of the Jadid reformist movement, Mahmudkhoja Behbudi was actively engaged in practical initiatives that served the interests of the people: he took the lead in establishing new-method schools, laid the foundations of theatrical art, published newspapers and journals, and founded publishing houses and libraries. He contributed equally to political, educational-cultural, and socio-economic spheres. Notably, Behbudi’s activities were interconnected and implemented in a coherent and systematic manner.

This article explores Behbudi’s program aimed at creating a national system of primary education

aloqalari, muharrirlik ishlari, “Oyina” jurnalining tashkil topishi va faoliyati, Behbudiy va tashqi davriy matbuot masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, jadidchilik, Behbudiy, ta’lim, Gasprinskiy, matbuot, “Oyina” jurnali, millat, jadid maktabi.

in the mother tongue, his regular correspondence and cooperation with Ismail Gasprinsky – the founder of the Jadid (reformist) movement among Russian Muslims – his editorial work, the establishment and operation of the Journal of ‘Oyina’, and his involvement with foreign periodical press.

Key words: Turkistan, Jadidism, Behbudi, education, Gasprinsky, press, Journal of ‘Oyina’, nation, jadid school.

KIRISH

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida butun Sharq mamlakatlari bo‘ylab yoyilgan islohotchilik harakati chor Rossiyasi qo‘l ostida bo‘lgan Turkiston o‘lkasiga ham kirib keldi. Bu islohotchilik harakati “jadidchilik”, uning vakillari esa “jadid” nomi bilan tarixga kirdi. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida siyosiy xaritada paydo bo‘lgan 1991-yildan hozirga qadar olib borilgan tadqiqotlarda, yozilgan turli mazmundagi maqolalarda jadidchilik harakatining mohiyati turlicha tadqiq va tahlil qilindi, uning ko‘lami hamda uni harakatga keltirgan shaxslar hayoti, ijodi, jamiyatga bo‘lgan ta’siri masalalari yoritildi. Ammo hanuz to‘laligicha ochib berilmadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 30-sentabr kuni “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida jadidchilik harakati, shaxslari haqida to‘xtaldi va “mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi” degan fikrni aytib o‘tdi. Darhaqiqat, agar tarixiy vaziyat imkon berganida edi uyg‘onish inqilobi amalga oshgan bo‘lardi. Buning chuqurroq izohini yana Prezident so‘zlari bilan aytadigan bo‘lsak, “bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar”.

Jadidlar islohotni maktabdan, aniqrog‘i, boshlang‘ich maktabdan boshladi. Bu bejiz emas edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy boshliq turkistonlik jadidlar boshlang‘ich ta’limni ona tilida berishga mo‘ljallangan milliy maktablarning umummilliy institutini yaratishga qaratilgan dasturni taklif etdi. Jadidlar bola boshlang‘ich savodini o‘z ona tilida chiqarishi unga millat, milliyat tushunchalarining chuqurroq singdirilishini ta’minlaydi, deb qaradilar. O‘z navbatida, Turkiston jadidlarining yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy quyi va yuqori maktabning isloh etilishi, millatning isloh etilishiga olib keladi, deb hisobladi. Uning ta’kidlashicha, millatning isloh etilishi, bu – milliy g‘oya bo‘lib, uni barcha targ‘ib qilishi kerak. Behbudiy “umummilliy g‘oya” mohiyatini tushuntirar ekan, ushbu g‘oya qolgan barcha g‘oyalardan yuqori turishi kerakligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, millatni ulug‘lash, maqsadlarni yuqori ko‘tarish, millatning haqiqiy birligi – bu “umummilliy g‘oya”ning mohiyatini tashkil etadi. Bu g‘oya millatning kelajakka intilishi va undan keladigan foydasini aks ettirishi lozim.

ASOSIY QISM

Behbudiy “maktabimiz, do‘konimiz, korxonamiz, madrasamiz va har

nimarsamizni zamoncha islohi lozimdur” degan shior bilan islohotni maktabdan, aniqrog‘i boshlang‘ich maktabdan boshladi. Bu bejiz emas edi. Maktab “taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub madaniyatdan foydalanmas” degan aqidani ilgari surgan Behbudiy boshliq turkistonlik jadidlar boshlang‘ich ta’limni ona tilida berishga mo‘ljallangan dasturni taklif etdi. E’tibor bering: boshlang‘ich ta’lim bolaning ona tilida berilishi kerak. Jadidlar bola boshlang‘ich savodini o‘z ona tilida chiqarishi unga millat, milliyat tushunchalarining chuqurroq singdirilishini ta’minlaydi, deb bildilar.

Behbudiy quyi va yuqori maktabning isloh etilishi millatning isloh etilishiga olib kelishini ta’kidlar ekan, millatga “o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun”, deya murojaat qildi. Behbudiy millatning isloh etilishini umummilliy g‘oya, deb bildi. Unga ko‘ra, millatni ulug‘lash, maqsadlarni yuqori ko‘tarish, millatning haqiqiy birligini ta’minlash – bu “umummilliy g‘oya”ning tub mohiyatini tashkil etadi.

Behbudiy boshliq barcha jadidlar xalqni isrofli tadbirlardan voz kechib, ularga sarf qilinadigan mablag‘ni, davlat va xorij ta’lim muassasalarida milliy kadrlar tayyorlash uchun yo‘naltirishga da’vat etdi. Behbudiy bu harakatni umummilliy ishlar, oliy maqsadlar, xohishlar va intilishlar deb atadi. Oliy maqsadlar, xohish va intilishlarni amalga oshirish uchun esa iroda, aniqroq aytadigan bo‘lsak, siyosiy iroda kerak edi. Behbudiy XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi sifatida Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishidan 11 yil avval, 1906-yili “Turkiston milliy-madaniy muxtoriyati” loyihasini ishlab chiqqan va uni yuqori miqyosda muhokama qilinishi uchun Rossiya davlat Dumasiga yo‘llagan edi. Bu loyihada Behbudiy ta’lim-tarbiya, ayniqsa yer masalasini qat’iy qo‘ydi va rus muhojirlarini ko‘chirib kelmaslik, hosildor yerlar mahalliy aholining ixtiyorida qolishi kerakligi haqida yozdi.

Behbudiy va Gasprinskiy

Turkiston jadidlari orasida katta shuhrat qozongan va ularning ko‘zga ko‘ringan yalovbardor vakili “Mahmudxo‘janing oti Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o‘run olishga munosib bir otdir” [Mahmud, 2007; 144]. Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining rahbari sifatida xalq uchun manfaati bor amaliy ishlar bilan qizg‘in shug‘ullandi: jadid maktablari tashkil etishda bosh-qosh bo‘ldi, teatr san’atiga asos soldi, gazeta-jurnal chop qildi, nashriyot hamda kutubxona tashkil etdi. U siyosiy, ma’rifiy-madaniy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda birdek xizmat qildi. E’tiborlisi, Behbudiy o‘z faoliyat nuqtalarini bir-biri bilan tutashtirgan holda amalga oshirgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistondagi barcha jadidlar, ma’rifatparvarlarni birlashtirishga intilgan yirik shaxsdir. Hoji Muin ta’riflaganidek, “bizdagi yangilik rahbarlarining biri va balki birinchisi, shubhasiz Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Behbudiy afandi uyg‘onish davri va o‘zbek adabiyoti tarixida birinchi o‘runni olurg‘a loyiq bir zotdur...” [Muin, 1923].

Shu bilan bir qatorda, u butun Rossiya imperiyasidagi ilg‘or, hur fikrli, islohotchi musulmonlar bilan muntazam aloqada bo‘lib turgan. Ayniqsa, u qrim-tatar ma’rifatparvari, Rossiya musulmonlari orasida yoyilgan jadidchilik-yangilanish

harakatining asoschisi Ismoil Gasprinskiyning sodiq muxlislaridan, shogirdlaridan biri desak, xato bo‘lmas. Chunki, uning fikrlari, qarashlari ko‘pda Gasprinskiy tutgan yo‘lga, olib borgan ishlariga muvofiq tushgan. Bu holni Behbudiyning o‘zi ham maqolalarida tilga oladi. Nemis olimasi professor Ingeborg Baldaufning ta’kidlashicha, Behbudiy Gasprinskiyning “musulmon jamiyati ijtihod eshiklarini lang ochib, yaxshilik tomon yuz tutadi, hozirda hukm surib turgan bid’at, xurofotdan xalos bo‘ladi” degan fikrlarini jon-dildan ma’qullar, o‘zi ham shu fikrda edi [Baldauf, 2001; 25].

Jadidlar Gasprinskiy va “Tarjimon” gazetasi bilan XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaqindan tanisha boshladi. Rus Turkistonida ziyolilar “Tarjimon”ni obuna orqali olgan bo‘lsalar, Buxoroda yashirin yo‘llar bilan keltirib o‘qidilar. Turkiston jadidlarining Gasprinskiyga bo‘lgan munosabatini aniqlash ularning ijodi va faoliyatini batafsil tahlil qilishni taqozo etadi. Turkistonda uzoq yillar davomida faoliyat olib borgan tatar ziyolilaridan Abdurahmon Sa’diy tatar matbuoti, jumladan, Gasprinskiyning Turkistonga ta’sirini asosan bu yerda ratsionalizm g‘oyalarining uyg‘onishida ko‘radi [Sa’diy, 1923]. Turkistonlik jadid vakillaridan Hoji Muin esa, turkistonlik jadidlarning yetakchilaridan bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning dunyoqarashiga bevosita “Tarjimon” va Gasprinskiyning asarlari ta’sir etganligi va uning musulmonlar ahvolini anglab yetishida asosiy omil bo‘lganligini ta’kidlaydi [Muin, 1923].

Mahmudxo‘ja Behbudiy turkistonlik jadidlar orasida Gasprinskiy bilan mustahkam aloqa o‘rnatgan va “Tarjimon”da faol ishtirok etganligi bilan ajralib turadi. Gazetaning sahifalarida uning ismi bilan bog‘liq 34 maqola va xabar uchraydi. Ularni yillar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, quyidagi holatni ko‘rish mumkin: 1904 – 1; 1905 – 1; 1906 – 4; 1908 – 3; 1909 – 2; 1910 – 2; 1911 – 1; 1913 – 15; 1914 – 6. Bular: 26 ta turli mazmundagi xabar, 4 maktub, 2 maqola, 1 telegramma, 1 Behbudiy maqolasiga taqriz va munosabat.

Behbudiy o‘z faoliyatini shakllantirishda va olib borishda bevosita Gasprinskiy yo‘lini tutgan, deb aytish mumkin. U birinchi bor 1899-yili haj qilish uchun sayohatga chiqadi va Istanbul, Qohira kabi shaharlarda bo‘ladi. Amerikalik tadqiqotchi Adib Xolidning ta’kidlashicha, Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni kuzatish barobarida ijtimoiy sohadagi islohotlarda yetakchilik qilgan shaxslar bilan ham muloqot qilish imkoniga ega bo‘lgan. Oradan 8 oy vaqt o‘tib, u Samarqandga qaytishi bilan “Tarjimon” gazetasiga obuna bo‘ldi [Khalid, 1993; 80]. Behbudiyning 1899-yilgi safaridan “Tarjimon” gazetasiga obuna bo‘lib o‘qiy boshlaganligini uning yaqin hammaslagi bo‘lgan Hoji Muin ham tasdiqlaydi [Muin, 1923].

Behbudiyning publitsistik faoliyati 1902-yili Turkistonda mahalliy tilda chiqqan rasmiy “Turkiston viloyatining gazeti”dan boshlandi. Gasprinskiy 1904-yildagi Rossiya–Yaponiya urushi munosabati bilan “Tarjimon”da musulmonlarni bu urushda ishtirok etayotgan rus va musulmon askarlariga yordam tariqasida pul, kiyim va oziq-ovqat yig‘ib yuborishga da’vat qilib, bir necha maqola yozdi. Behbudiy ham ayni shu mavzuda “Turkiston viloyatining gazeti”da kichik bir maqola e’lon qildi. Unda

Behbudiy turkistonliklarga musulmonlar nima sababdan rus askarlariga va davlatiga yordam berishlari kerakligini tushuntiradi. Muallif o'z so'zlarining dalili sifatida "gazetlarda yozilib" turgan "Qrim tarafidagi ba'zi shaharliklar" pul va kiyim yig'ib yuborganliklari voqeasini misol keltiradi [Behbudxo'ja, 1904a]. Behbudiy "gazetalar" deganida aynan "Tarjimon"ni nazarda tutadi va unda berilgan xabarlardagi [Behbudiy, 1904] ma'lumotlardan foydalanadi.

Behbudiyning "Tarjimon"dagi ishtiroki 1904-yilning so'ngida ko'rinadi. Gasprinskiy bilan Behbudiy orasidagi amaliy hamkorlik aynan shu davrdan boshlanadi deyish mumkin. "Tarjimon" idorasi Rossiya musulmonlari manfaatlari uchun mo'ljallangan turli tadbirlarga o'z o'quvchilarini pul xayriya qilishga doim targ'ibot ishlarini olib borgan. Behbudiy "Tarjimon" idorasining shunday murojaatlaridan biriga javob tariqasida Peterburgda Buxoro amiri Abdulahadxon tashabbusi bilan qurilayotgan masjid hamda Samara viloyatida tashkil etilgan qizlar maktabiga xayriya tarzida pul yuboradi. Va "Tarjimon" idorasiga yig'ilayotgan pullarni qay tartibda kerakli joylarga yuborishi haqida savol bilan murojaat qiladi. Gasprinskiy Behbudiyga tashakkur bildiradi va savoliga batafsil javob beradi [Gasprinskiy, 1904].

"Tarjimon" gazetasining Turkiston o'lkasidagi e'tiborini "usuli jadida nomi bilan isloh qilingan va ochilgan maktablar muhtaram "Tarjimon" ta'sirida alifbodan oxiriga qadar turkcha dars berib, Turkistonda turkchaning yoyilishiga xizmat qil ganligida" [Gasprinskiy, 1904] ham ko'rish mumkin. Bu so'zlar ham Behbudiyga taalluqli. "Tarjimon" va Gasprinskiy faoliyati, Behbudiy e'tiroficha, Turkistonda juda katta ta'sirga ega bo'lgan. Behbudiy Turkistondagi "barcha muallim, ustod va muovinlar "Tarjimon" yordamida" turkiy tilni o'rganganliklarini hamda "Tarjimon" vositasida chorak asrdan beri "zamonaviy yangi adabiyot" bilan tanishish, "madaniy ehtiyoj"larini to'la qondirish imkoniga ham ega bo'lganliklarini ta'kidlaydi [Behbudxo'ja, 1909]. Behbudiy turkiy til deganda Gasprinskiy taklif etgan umumturkiy adabiy tilni nazarda tutadi.

Gasprinskiyning turkiy xalqlar uchun yagona adabiy til, nemis olimasi Ingeborg Baldauf iborasi bilan aytganda, "murosa shevasi" [Baldauf, 2001; 38] yaratishga bo'lgan harakati uning "millat" konsepsiyasi talqinining mahsuli, deb hisoblash mumkin. Gasprinskiyga ko'ra, "millat, bu – din va til birligi. Ushbu ikki narsadan biri yo'qotilsa" millat o'zligini yo'qotadi, inqirozga yuz tutadi [Gasprinskiy, 1905a]. Barcha millatlarning o'tmishi, kelajagi din va tilga asoslangan. Din birligi qanchalik muhim bo'lsa, adabiy jihatdan til birligi ham shu qadar muhim va bevosita taraqqiyot vositasi hisoblanadi [Behbudxo'ja, 1905]. Gasprinskiy til birligini o'ta muhimligini ko'rsatish maqsadida, hatto uni boshqa barcha birliklarning boshi va negizi darajasiga olib chiqdi [Gasprinskiy, 1906a].

Bu jihatdan olib qaraganda, turkistonliklar orasida birinchi bo'lib Behbudiy Gasprinskiyning til birligi g'oyasini keng targ'ib qildi va quvvatladi. Behbudiy bu masala yuzasidan Turkiston shaharlarida o'ziga xos so'rovnoma va tajriba ham o'tkazdi. Umuman gazeta o'qimagan odamlarga turli gazetalarni o'qitib eshittirdi, Turkistonning turli hududlaridan o'qib eshittirilgan gazetalar "tili" bo'yicha fikrlarni jamladi. Behbudiy o'tkazgan tajriba va so'rovnomasi asosida turkistonliklar

uchun Gasprinskiyning “Tarjimon” gazetasi, Abdurashid Ibrohimovning “Mir’ot” jurnali hamda “Ulfat” gazetasining tili ko‘proq tushunarli, degan xulosaga keldi. Va “chorak asrdan beri millatimizga til, qalami, qalb quvvati bilan xizmat qilgan, yangi matbuotimiz raisi ham otasi janob Ismoilbek hazratlariga til bobida ergashmoq Rossiyadagi hamma muharrirlarga lozim” ekanligini tavsiya qildi. Bu bilan Behbudiy ham Gasprinskiy kabi Rossiya musulmonlari birligining asosi va negizida til birligi bo‘lishi kerakligini yana bir bor ta’kidlaydi [Behbudiy, 1906a]. Behbudiyning bu fikrlarini Gasprinskiyning umumturkiy til borasidagi qarashlari tasdig‘i sifatida ko‘rish mumkin.

Behbudiy yagona til borasida fikrlarini davom ettirib, “...til birligining foydalari juda yaxshi ma’lum. Zero, til birligi do‘stlik, muhabbat, bir-biriga yordam va jipslashuvning asosi” degan amaliy xulosaga keldi. Mavlono Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asaridan til to‘g‘risidagi baytlaridan misollar keltirib, Gasprinskiyning bu boradagi harakatlariga Rumiyning fikrlari sharaf berishini yozdi [Behbudiy, 1906b].

Behbudiy Turkiston uchun turkiy bilan bir qatorda forsiy tilning “o‘rta sheva”sini ilgari suradi. Bu taklifning amaliy natijasi sifatida 1914-1915-yillarda Samarqandda Behbudiy tomonidan nashr qilingan “Oyina” jurnalini ko‘rsatish mumkin. Baldauf Behbudiyning bu tashabbusini o‘z o‘quvchilari bilan hamfikr va hammaslak ekanligini bildirish va ko‘rsatish deb baholaydi [Baldauf, 2001; 40].

Turkistonda ikkitillilik masalasini Behbudiy “Oyina”ni chiqarmasidan ancha ilgari, 1909-yili “Tarjimon”ga yo‘llagan maqolasida [Behbudxo‘ja, 1909] ko‘targan edi. Behbudiy turkiy va forsiy tilning turkistonliklar uchun ahamiyatli ekaniga e’tibor qaratmoqchi bo‘ldi va ikkala tilning maktab tahsiliga kiritilishi tarafdori ekanligini ilgari surdi. Behbudiy o‘z fikrlarini quyidagi argumentlar bilan isbotlashga harakat qildi: 1) Turkistondagi aksariyat shahar aholisi turkiy va forsiyda bemalol muloqot qiladi; 2) ba’zi hududlarda bu ikki tilning qorishiq shakli ishlatiladi; 3) rasmiy idoralarga arizalar turkiyda yoziladi; 4) shar’iy fatvolar forsiyda yozilib, turkiyda qayd qilinadi va bu usulga butun Turkistonda amal qilinadi. Behbudiy maqolasining so‘ngida o‘zi keltirgan isbot va dalillarga tayangan holda Turkiston maktablarida ham turkiy, ham forsiy birga o‘qitilishi maqsadga muvofiq degan xulosa beradi [Behbudxo‘ja, 1909].

Behbudiy 1906-yili “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasini ishlab chiqdi va uni muhokama qilish uchun davlat Dumasidagi musulmon fraksiyasiga yo‘lladi. Ushbu loyiha bir necha yil oldin Gasprinskiyning Istanbulga olib ketilgan arxividan topildi [Hablemetoğlu & Kocaoğlu, 2001]. Behbudiy loyihani Dumaga kiritishdan oldin Gasprinskiyning maslahatini olish maqsadida unga yuborgan ko‘rinadi. Ushbu loyihaning Davlat Dumasiga yuborilgan yoki yuborilmaganligi noma’lum.

Rossiya musulmonlariga “madaniy muxtoriyat” masalasi Yevropa sotsialistlari ta’limotidan kirib keldi. Islohotchilar Avstriya imperiyasi kabi rivojlangan shaklga ega demokratik Rossiya imperiyasini ko‘rishni istardi. Bu tizim, o‘sha paytda Rossiyaga nisbatan anchayin liberal siyosat yuritgan Avstriya imperiyasi tomonidan kam sonli millatlarga asosiy fuqarolik huquqlarini kafolatlar edi. Sotsial-islohotchilarning bunday pozitsiyasi Avstriya sotsial-demokratik partiyasining siyosiy platformasida o‘z aksini topgan bo‘lib, siyosiy boshqaruvning bunday shakli ilk marotaba avstriyalik

marksist Otto Bauer [Bauer, 1907] tomonidan "madaniy-milliy muxtoriyat" [Davis, 1967] loyihasi ko'rinishida taklif qilingan. Rossiyada amaliyotga tatbiq etilishi ko'zda tutilayotgan ushbu tizim bir imperiya doirasida fuqarolik tenglik hamda imperiya qo'l ostidagi xalqlar o'rtasida federalizm shaklini joriy qilish imkonini berishi mumkin edi [Blaut, 1987; 146].

Behbudiyning siyosatga doir nazariy qarashlari uning "Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunayi jug'rofiya" darsligida, "Duma va Turkiston musulmonlari", "Xayr ul-umuri avsatuha", "Muhtaram Samarqandiylarg'a xolisona arz" va shu kabi maqolalarida o'z ifodasini topgan. Xususan, "Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunayi jug'rofiya" darsligida Behbudiy dunyoda mavjud bo'lgan davlat boshqaruvi usullari haqida mufassal ma'lumot beradi [Behbudiy, 1999; 243-245]. Gasprinskiy "Tarjimon"ning ilk yillarida o'quvchilarini ayni masala bilan tanishtirgan edi [Gasprinskiy, 1885]. Behbudiyning "Idorayi mustaqila", "Idorayi mashruta", "Idorayi jumhuriyat" va "Millat majlisi" borasidagi ta'riflari Gasprinskiy ta'riflari bilan juda yaqin.

Behbudiy XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi [Qosimov, 2002; 227] sifatidagi qarashlari Gasprinskiy fikrlari bilan hamohang bo'lganligini yana bir dalili sifatida uning sotsializmga bo'lgan munosabatida ko'rinadi. Behbudiy o'sha yillari sotsialistik ta'limotni keskin rad etgan Butunrossiya musulmonlarining partiyasi "Ittifoq al-muslimin" va ushbu partiya birgalikda faoliyat olib borishga kelishgan kadetlar partiyasi qarashlarini ma'qul ko'rgan [Behbudiy, 1906b]. B.Qosimovning fikricha, Behbudiyning sotsialistik ta'limotga qarshi fikrlari ustozi Gasprinskiyning "Mazhabi ishtirokiyun"ni qattiq tanqid qilgan asarlaridagi mulohazalariga tayanadi. U ham Gasprinskiy kabi sotsializmni zo'ravonlik hisobladi, ijtimoiy tenglikni adolatsizlik deb bildi [Qosimov, 2005]. Behbudiyga ko'ra, sotsialistik mafkura nafaqat foydasiz, balki juda zararli. Sotsialistlarning oila, shaxs va ijtimoiy tenglik borasidagi fikrlari musulmonlar uchun shariat yuzasidan umuman to'g'ri kelmaydi [Behbudiy, 1906b].

Behbudiy Turkiston xalqlarining taraqqiyotini faqat ta'lim emas, balki uning siyosiy mavqeyi to'la o'zgarishiga bog'liqligida ko'rdi [Alimova & Rashidova, 1998; 16]. Behbudiyga ko'ra, har bir millat o'z haq-huquqini siyosiy harakatlar va birdamlik bilan qo'lga kiritishi mumkin [Behbudiy, 1917]. Behbudiyning siyosiy qarashlari bu jihatdan Munavvarqori fikrlaridan keskin farq qiladi. Munavvarqori millat haqqini qo'lga olishi uchun qonli kurash olib borishi tarafdorlaridan edi [Abdurashidxonov, 1917].

Behbudiy Gasprinskiy bilan bir necha marotaba ko'rishdi. Ularning birinchi uchrashuvlari qachon va qayerda bo'lganiga dalillar yo'q. Shunday bo'lsa-da, ularning birinchi uchrashuvlari 1906- yili 15-avgustda Nijniy Novgorodda o'tgan Butunrossiya musulmonlarining III-syezdida bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin. Ayrim tadqiqotlarda ularning birinchi uchrashuvi Behbudiyning 1904-yildagi Rossiya bo'ylab qilgan sayohati davomida bo'lganligi ham ta'kidlanadi [Alimova & Rashidova, 1998; 23]. Lekin bu faktni tasdiqlovchi dalillar yo'q. Behbudiy syezdda ishtirok etish uchun Orenburg, Moskva, Peterburg va Qozon shaharlari orqali Nijniy

Novgorodga boradi [Behbudiy, 1914e]. A.V. Pyaskovskyiga ko‘ra, Behbudiy ushbu syezdda turkistonlik vakillarning boshlig‘i sifatida qatnashdi va Turkistondagi vaziyat va musulmonlar ahvoli borasida ma’ruza qildi [Pyaskovskiy, 1958; 559]. Syezdda qatnashgan turkistonliklar delegatsiyasi syezd prezidiumi a’zolariga ziyofat berdi va ziyofat davomida Turkistonga oid turli masalalar muhokama qilindi. Gasprinskiy ziyofat davomida muhokama qilingan masalalardan bittasini alohida ko‘rsatib o‘tadi va: “Turkiston viloyatida vaqf, maktab va madrasa ishlari islohga muhtojligi hamda diniy ishlar viloyat boshqarma (oblastnoy pravleniya)lar tasarrufidan hamda inspektorlarning aralashuvidan xoli qilinib, bu ishlarni boshqarish uchun “mahkamayi islomiya” ta’sisi zarur”ligi birinchi darajali vazifalardan ekanligi majlis ishtirokchilari tarafidan ma’qullanganligini aytadi [Gasprinskiy, 1906]. Bu yuqorida aytib o‘tilganidek, Gasprinskiy ilgari surgan avtonom tuzilmaning bir qismi edi. Gasprinskiyning rejasiga ko‘ra, Rossiya musulmonlari uchun bunday “mahkamai shar’iyalar” to‘rt yerda tashkil qilinishi va ularni birlashtiruvchi umumiy idorasi bo‘lishi kerak edi [Khabutdinov, 2002; 116].

Behbudiy e’lon qilgan maqolalarining aksariyati Gasprinskiy bir umr ta’kidlagan ilm, kasb, til o‘rganish va ma’rifatli bo‘lishga chaqiradi. Bunga juda ko‘plab misollar keltirish mumkin. Uning “Sayohat xotiralari”dan tortib “Oyina”, “Samarqand” va boshqa nashrlardagi maqolalarining asosi ma’rifatga targ‘ibdir. Behbudiy ham Gasprinskiy kabi bu yo‘lda osonlikdan qiyinlikka qarab yurdi. Gasprinskiy gazeta nima [Gasprinskiy, 1883] ekanligi yoki musulmonchilikda rasm [Gasprinskiy, 1898] kabi masalalarni tushuntirar ekan, Behbudiy ham huddi shu yo‘l bilan o‘z o‘quvchilarini gazeta [Behbudiy, 1907, 1913a, 1913b] bilan bir qatorda ayrim ilmiy istilohlar, geografiya [Behbudiy, 1913b; 1914b], yer [Behbudiy, 1913d] va boshqa turli mavzularni tushuntirishga urindi. Ayniqsa, Behbudiy bilan Gasprinskiydagi bu kabi fikriy uyg‘unliklar adabiy tanqid hamda teatr masalalarida juda yaqqol ko‘rinadi. Gasprinskiyga ko‘ra, “bir adabiy asarning va ba’zan bir inson ishining mohiyatini ochadigan mulohaza va mutolaaga “tanqid” [Gasprinskiy, 1895] deb qaralsa, Behbudiy esa “sarroflar pulni, tujjorlar matohni saralaganidek, muharrirlar ham umumiy hol va maishatga taalluqli narsalarni saralaydilarki, boshqa so‘z bilan “tanqid” ataladi” [Behbudiy, 1914f], deb ta’rif beradi. Ularning bu masaladagi fikrlarining davomida ham ayni uyg‘unlikni kuzatish mumkin. Gasprinskiy teatrning mohiyatini tushuntirar ekan, “teatr bu bir sayr va tamoshaxonadirki, bor va bo‘lgan narsalarni ham, bo‘lmagan hollarni ham bayon qiladi” [Abbos, 1887] deydi. Yana bir joyda esa “teatr hunari buyuk hunardir. Teatrxona – ibrat maydoni, balog‘at va fasohat maktabi” ekanligini yozadi. Behbudiy o‘z navbatida “teatr va’z va tanbeh qiladigan hamda zararlik odat, urfning yomon va zararini aynan ko‘rsatadi. Hech kimni ayamaydi” kabi fikrlar bilan uni tushuntiradi. Behbudiyga ko‘ra, teatr taraqqiyotning birinchi sabablaridan biri [Gasprinskiy, 1884].

Behbudiy Gasprinskiy bilan keyingi yillarda ham bir necha marotaba ko‘rishdi. Gasprinskiy 1908-yili Turkistonga safar qilar ekan, Samarqandga kelganida to‘g‘ri Behbudiy tashkil etgan maktabga bordi. Maktabning bosh muallimi Abdulqodir Shakuriy hamda maktab faoliyati bilan yaqindan tanishdi [Gasprinskiy, 1908].

Behbudiyning uyida mehmon bo'ldi [Behbudxo'ja, 1909].

Ularning yana bir uchrashuvlari 1912-yil Istanbulda bo'ldi. Ushbu uchrashuvning mavzusi Turkistonning siyosiy jihatdan tuzilmasi va boshqaruv usuli haqida bo'lganligi Chor oxrankasi bildiruv qog'ozlaridan ko'rinadi. Ma'lum bo'lishicha, Gasprinskiy ham Behbudiy ham uchrashuvga kelgan boshqa turkistonliklarning viloyatda respublika tipidagi boshqaruv usuli haqidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamagan [Turdiyev, 1998]. Ushbu holatdan "ustod" va "shogird"ning siyosiy masalada hamfikrligi yana bir bor ko'rinadi. Gasprinskiy siyosiy masalalarda o'ta ehtiyotkor bo'lib, hech qachon shoshmaslik va har bir ishning vaqti kelgunga qadar zamin hozirlash kabilar bilan chegaralandi [Fotih, 2006; 232].

Ular yana bir bor va oxirgi marta 1914-yil yoz oylarida Istanbulda ko'rishdilar. Uchrashuv Behbudiyning Sharq mamlakatlari bo'ylab qilgan ikkinchi sayohati [Behbudiy, 1914e] boshlarida, Behbudiyga ko'ra, tasodifan bo'lgan. Balki, tasodifiy ham bo'lmagandir. U vaqt "Tarjimon"ning muharriri bo'lgan Gasprinskiyning o'g'li Rifat Gasprinskiy Behbudiy bilan Qrimda ko'rishadi va Odessa shahrida uni Istanbulga kuzatib qo'yadi [Behbudiy, 1914g]. U otasi haqida Behbudiyga ma'lumot bergani aniq. Gasprinskiyning Behbudiy bu uchrashuvda "ustod hazratlari bilan yetti soat tanho suhbat" qilganligidan juda mamnun ekanligini yozgan edi. Behbudiy orada bo'lib o'tgan suhbat mazmunini keng yoritmaydi. Umumiy tartibda Turkistonning ahvoli, maktab, gazetachilik, dunyo musulmonlari haqida kechganligini aytib o'tadi [Behbudxo'ja, 1904b].

Birinchi milliy jurnal – "Oyina"

Behbudiy 1913-yili 20-avgustda tashkil qilgan "Oyina" jurnaliga muharrirning eng qizg'in ijod pallasi aks etib turgan ko'zgu sifatida qarashimiz mumkin. "Turkiy va forsiy o'rta shevada" [Behbudiy, 1913a] chiqqan ilk jurnal "Oyina" xalq orasida ancha mashhur bo'lgan [Qosimov, 1994; 14]. Birgina Turkistonda emas, "dunyo musulmonlari orasida yaxshigina shuhrat va e'tibor" [Muin, 2010; 31] qozongan "Oyina" millat uchun "yasalgan" edi: "...majalla bizniki emas, millatnikidur", deb ta'kidlagan Behbudiyning o'zi [Behbudiy, 2006; 155]. Haqiqatan ham, "Turkistonga xizmati buyuk" deb e'tirof etilgan "Oyina" bu yo'lda og'ishmay ijod qildi, "o'lka xalqlarining fikriy uyg'onishiga katta hissa qo'shdi" [Do'stqorayev, 2009; 191]. Jurnalning yuzaga kelishida Behbudiyni ruhlantirgan omil dastlabki tatar jurnali "Mir'ot" ("Oyina") bo'ldi, deyish mumkin. U jurnalni "Mir'ot" – "Ko'zgu" – "Zerkalo" – "Oyina" deb to'rt tilda nomladi va u forscha nomi bilan shuhrat topdi. "Oyina"ning maqolalari o'zbek va tojik tillarida yozilgan. Buning ko'proq ulushi o'zbek tiliga to'g'ri keladi. Jurnal rus tilida reklama va e'lonlar berib borgan.

Jurnal sahifalarini tadqiq etish jarayonida uning birinchi yilidagi sonlarida turli mavzulardagi maqolalarga keng o'rin berilgan bo'lsa, ikkinchi yilga kelganda esa, "Oyina"ning tanqid kuchi bir oz susaygan, she'riy parchalar miqdori ortib ketganligini kuzatish mumkin. Xususan, o'quvchilardan biri yuborgan maktubda bu hol shunday ta'rif etilgan: "Oyina" bultur mushtariylarg'a ko'zingni och, deb qichqirar edi. Bu yil esa xonandalarni beshikda tanbur aytib uxlatmoqdadurki, ilgarigi maslakida davom etsun" [Behbudiy, 1915]. Agarda jurnal mundarijasiga e'tibor qaratadigan

bo‘lsak, unda turli xorijiy va doxiliy xabarlar, ilmiy maqolalar, go‘zal she’r va nasriy asarlar, hajviy parchalar – xullas, mushtariyni jalb qila oladigan rang-baranglikni ko‘ramiz. Biroq katta rejalar bilan ish boshlagan jurnal mushtariylar tomonidan yetarlicha qo‘llab-quvvatlanmadi. Uning tashkil etilgandagi ehtiroslar otashi tez so‘ndi. Barcha ishlar birgina muharrir zimmasida qolib ketdi. Bu esa, o‘z navbatida, jurnal saviyasiga ta’sir etmay qolmadi. Hamma masalada bo‘lganidek, “Oyina”ga nisbatan ham muxlislar nigohida ikki xil qarash bo‘lgan. Jurnal sha’niga yog‘dirilgan “tabrik yog‘murlari” [Fitrat, 1915] bilan bir qatorda “Oyina”ning tashkil topganiga ko‘p vaqt o‘tmay e’tirozlar bitilgan xatlar ham kela boshladi. Fitratning “Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi- hayoti yo‘q” nomli maqolasida yuqorida aytib o‘tilgan holat ancha batafsil tahlil etilgan. Xususan, “butun Turkistonda bo‘lmasa ham, u katta Samarqand shahrinda shul keraklik majallani halokatdan qutqaraturgon bir necha himmat egalari yo‘qmidur ajabo?! Qani ul tabrik yog‘murlari! Qani ul tashakkur to‘fonlari?...” [Fitrat, 1915] – degan iztirob to‘la so‘zlarini keltirish mumkin. Yana bir jihatdan olib qaraganda, bu tanqidlar “Oyina”ning doim e’tiborda bo‘lganligini ham dalillaydi. Lekin bu e’tirozlarning ko‘pi bir-birini inkor qilardi. Behbudiy jurnalning 15-sonida xuddi o‘shanday bir-biriga javob bo‘luvchi xatlardan bir qanchasini chop etdi. Birinchi maktub muallifi “Toshkentlik” jurnalni o‘z foydasi uchun xalqqa “xushomad” qilayotganlikda ayblaydi. Uning fikricha, “Oyina” juda bo‘sh yozadi. Yana bir maktub muallifi “Qo‘qonlik” esa o‘quvchilar ko‘ngliga qattiq tegadigan va “xalqni o‘zidan nafrat qilduradur”gan uslubda davom etsa, “Oyina” o‘z-o‘zidan “sinub” yo‘q bo‘lishini aytib, “bo‘sh” jurnalning uslubini “o‘ta qattig‘”, deb baholaydi: “.....alalxusus ulamo va boylarg‘a hatto usuli jadidchilarg‘a “Oyina” so‘zlari qattig‘ tegib xalqni o‘zidan nafrat qildiradur. .....ulamo yomon degandan so‘ngra xalq “Oyina”ni o‘qumaydurgan bo‘lur. Albatta, xalqni, xususan, ulamoni tanqid qilinmasun....” [Behbudiy, 1914a]. Shu kabi “Oyina”ga yo‘l ko‘rsatuvchi yana bir maktubda “Oyina” doim yomon ishlarni topib yozadi, yaxshi jihatlarni ko‘rmaydi, deb tanqid qilinadi. Ya’ni, Behbudiy millat sha’niga noloyiq deb bilgan illatlarga qarshi chiqib, “Oyina” minbarida ularga munosabatini bildirib turganligi tanqid qilinmoqda. Maktub muallifi muharrirning bu ishlariga qarshi chiqadi: “...to‘y va ma’rakani kichik bo‘lsun, masorifi ozaysun, bazmlar yo‘q bo‘lsun deb yozar. Ammo bu nimarsalar avvaldan bor edi. Yana bo‘lur”.

Keyingi maktublarda jurnalning tili haqida gap ketadi. Samarqandlik muallif fors tilidagi maqola va she’rlar “Oyina” tilini og‘ir qilib qo‘yayotganligidan nolib, xalq anglaydigan “oson o‘zbakiy ila” yozishga chaqiradi. Yana muallif yozadi: “Bizg‘a tarix va fandan yozmay, har kim bilaturgon va qiziqaturgon xabar va g‘alati ajoyibotlardan yozing. Bu “Oyina”ngiz qiziq emas. Oshiqona g‘azallar ko‘broq yozilsa yaxshi bo‘lurdi”. E’tiroz kayfiyatidan ko‘rinib turibdiki, maktub egasi oddiy avom vakili. Navbatdagi maktub mazmuni esa yuqoridagisining aksi: “Oyina” tilini avomcha va ko‘chagi qilib yuborilibdur. Muni avom o‘qimaydur. Ahli ilm va adabiyoti jadida oshiqlari o‘qiydur”. Maktub muallifining fikricha, jurnal avom uchun emas, uni fanniy narsalardan ko‘proq yozib, ilmiyroq qilish kerak edi. Maktublar ichida birgina fors tilida yozilgani ham bo‘lib, uning muallifi Munzim Buxoriy

edi. Munzim forsiy tilning hozirda keng yoyilib borayotgani holda, nima sababdan "Oyina" forscha kam yozadi, deb savol qo'yadi. Mushtariylar ra'yiga qarab aqalli jurnalning yarmini bo'lsa ham forsiy she'r va maqolalar bilan boyitish lozimligini maqbul deb taklif kiritadi [Behbudiy, 1914a]. Behbudiyda esa forsiy va turkiyga bir til, ya'ni musulmoniy deb yondashish mavjud bo'lgan [Baldauf, 2001; 42]. Ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning "Oyina"dan ko'ngli to'lmagan. Maqola yo'llovchilar kam bo'lgani sababli, muharrirning o'zi ko'proq ijod qilishiga to'g'ri kelgan. Bir xil uslub ham o'quvchilarni zeriktirishi tabiiy. Jurnalning ba'zi sonlariga nisbatan "24-sahifani hamasi Mahmudxo'jani qalami ila to'ladur, desak ham bo'lur" [Mirmuhsin, 1915]. Sababi yuqorida aytilganidek, maqola yuboruvchilar siyraklashib qolgan edi. Behbudiy bularga javoban "Oyina" sahifalari har kimga ochiqligini ta'kidlaydi [Behbudiy, 1914a].

"Oyina" jurnali juda oz mushtariy bilan ikkinchi yilini boshlaydi. Uning zimmasiga yog'ilayotgan talablar esa yana-da kuchayadi. Endi mushtariylar jurnalni boshqa nashrlar bilan solishtira boshladi. Buxorolik bir maktub yo'llovchi "Oyina"ga "Sadoyi Turkiston" imlosini qabul qilish taklifi bilan chiqadi. Namanganlik muallif "Oyina"ni "Sho'ro" va "Dirilik"dek qilib chiqarilsin, deb keskin talab qo'yadi [Behbudiy, 1915]. Behbudiy Samarqanddagi matbuot ishlari mukammal emasligini, "Dirilik" va "Sho'ro"dek chiqarmoq uchun yana 15-20 yil vaqt kerakligini tushuntirishga urinadi. Mirmuhsin Shermuhamedov (1895–1929) ham o'z maktubida jurnal mundarijasini "Sho'ro" kabi avvalgi sahifada yozilishini so'raydi. Hamma talablarning qondirilishi ilojsiz bo'lgani sababli Behbudiy bularni ijrosiz qoldirgan, deb taxmin qilish mumkin.

Qarshi fikrlar yozilgan mavzularning biri muhoraba, jang xabarlari edi. Harbiy va siyosiy xabarlar Turkiston matbuotining eng ko'p o'quvchi to'play oladigan mavzularidan biri bo'lgan. Bunday xabarlar gazetada berish uchun qulay bo'lib, jurnal oyda bir yoki ikki marta chiqquniga qadar bu xabarlar o'z yangiligini yo'qotar edi. "Oyina" jurnalida muhoraba xabarlarining berilishiga M.Shermuhamedov ko'p e'tiroz bildirgan. Hatto ayrim shunday iltimoslar bilan xat yo'llagan mualliflarni tanqid ostiga oladi: "Muhoraba xabarlari yoki sud-u sudya voqeotlari yozilmasa yaxshi bo'lur, nimagaki boshqa jaridalardan bul voqealar ilgariroq eshitilur" [Behbudiy, 1915]. Behbudiy ham ushbu fikrlar tarafdori bo'lgan. U muhoraba xabarlarini o'qish uchun "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona"ni tavsiya qiladi. Jurnal uslubini esa adabiy, ilmiy, tarixiy, fanniy maqolalardan iborat bo'lishini lozim deb bildi [Behbudiy, 1914a].

"Oyina" tashkil etilgan kunidan uning faoliyati va mazmunini boyitish to'g'risida turli-tuman maslahatlar jurnalning oxirgi soniga qadar yonma-yon ketdi. Ularda maqolalar hajmi ikki sahifadan oshmasligi, jurnal "qalinroq" bo'lishi va ko'proq chiqishini xohlovchi talablar yangray boshladi. Quruq maslahatlar ko'p edi. Lekin jurnalning taraqqiysi uchun amaliy ish qiladiganlar yo'q edi hisobi. Behbudiy bu istaklarni amalga oshirish uchun pul va ko'ngillilar yo'qligini, o'zining "kasal nimkora" holi bilan bu ishda ojizligini ochiq-oydin yozdi [Behbudiy, 1915].

"Oyina"ning asta-sekin darz ketayotganini so'nggi sonlaridan ham payqash

mumkin. Avval boshida Tavallodan boshlangan yuz o‘girishlar [“E’tiroz”, 1914] samarqandlik ziyolilarga ham o‘tdi. Hoji Muin, Saidahmad Vasliy Samarqandiy, Siddiqiy-Ajziylar “Oyina”dan “qalam”larini to‘xtatdi. Jurnal Behbudiyning ilmiy maqola va she’rlari jamlangan to‘plamga aylanib qolayotgan edi. Shu o‘rinda Mirmuhsin Shermuhamedovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “...bizda yangi bir asar ko‘runa boshlasa, 5-6 kun baqirib-chaqirib she’r va maqola yozarmiz, so‘ngra charchagan kishi bo‘lib o‘z manfaatimizga bechora millatni qurbon qilib o‘lturaveramiz. Shuning uchun bizim o‘rtamizda matbuot e’tiborsizlanub boradur” [Mirmuhsin, 1915]. Ushbu “arznoma”lardan sezish mumkinki, “Oyina” haqiqatan ham xalq qalbiga umumiy yo‘l topa olmagan” [Abdirashidov, 2011; 319].

1914-yil 52-sonidan keyin “Oyina” o‘z faoliyatini to‘xtatishga qaror qildi. Biroq idoraga kelgan iltimoslar sabab 68-sonigacha davom etdi. 1915-yil 15-iyundagi 16 (68)-sondan “Oyina” tugatildi. Idora buning so‘nggi sababi qilib muharrirning betobligi va tahrir etuvchi kishining yo‘qligidan deb ko‘rsatdi. Bildirishnomada “Oyina”ning 17 (69)-soni chiqariladi, deyilgan bo‘lsa-da, jurnal qaytib dunyo yuzini ko‘rmadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va tashqi dunyo

Behbudiy Turkiston aholisini ma’rifatli, bilimli qilishda juda sermahsul, sermazmun faoliyat olib bordi. Hoji Muin so‘zlari bilan aytadigan bo‘lsak, “Behbudiy afandi... qo‘lig‘a qalam olib, ...Turkistonning yangilik va yuksalishig‘a hormay-tolmay, talashib-tortishib xidmat qilg‘on birdan-bir muharrir va yo‘lboshchi” [Muin, 1923] edi. Uning ushbu faoliyatining eng muhim bir qismini jurnalistlik, gazetachilik tashkil qiladi. U bir qancha vaqtli matbuot nashrlarini chiqarish bilan birga, “Xurshid”, “Tujjor”, “Haqiqat” (keyinchalik “Shuhrat”) kabi mahalliy gazeta va jurnallarda ishtirokidan tashqari Kafkaz, Qrim, Volgabo‘yi musulmonlarining vaqtli nashrlarida ham faol qatnashib turgan [Baldauf, 2001; 26]. “Behbudiy afandi, yozadi Xoji Muin, Kafkaz, Totoriston va Turkistonda chiqqan matbuotda doim adabiy, ilmiy, ijtimoiy va siyosiy maqolalar yozib turar edi” [Muin, 1923].

Behbudiy jami 18 ta vaqtli matbuot nashrlarida faol qatnashgan va jami maqolalarining soni 200 ga yaqin bo‘lgan [Muin, 1923]. Hoji Muin ko‘rsatgan bu nashrlar orasida Turkistondan tashqarida nashr qilingan “Tarjimon”, “Vaqt”, “Sho‘ro”, “Tirik so‘z”, “Ulfat”, “Irshod”, “Toza hayot” kabi o‘z davrining mashhur gazeta va jurnallarini ko‘rishimiz mumkin.

Behbudiy maqolalarning aksariyati Turkiston maktab-madrasalarining islohi, bu borada qilinayotgan sa’y-harakatlar haqida edi. “Behbudiy maqolalarining ko‘bisi muhim mavzularda yozilg‘on bo‘lub, hanuz eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dasturulamal bo‘laturg‘on foydalik so‘zlardur” [Muin, 1923], deb yozadi o‘z vaqtida Hoji Muin. Masalan, uning “Tarjimon”dagi “Turkistonda maktab lisoni” (1909-yil, 14-, 21-sonlar) maqolasi “...maktab lisoni tahsilasi bobinda bahs...” bo‘lib, bunda Behbudiy Turkistondagi maktablarda tahsil bir tillik emas, bir necha tillik bo‘lishini yoqlab chiqqan edi.

Behbudiyning Turkistondan tashqaridagi vaqtli nashrlardagi faoliyatini kuzatar ekanmiz, unda vaqt jihatdan ma’lum bir chegaralanishni ko‘ramiz, ya’ni

1909–1913-yillar orasida u o‘sha nashrlarda faolroq ishtirok etgan va o‘z maqolalariga “Muftiyi dor ul-qazo Mahmudxo‘ja bin Behbudxo‘ja”, “Dor ul-qazo muftilaridan: Mahmudxo‘ja Behbudiy” kabi imzolar qo‘ygan.

O‘zbek, turk, tatar, ozarbayjon, eron, arab uyg‘onish harakati vakillari bir-birlari bilan matbuot orqali har doim aloqa o‘rnatib borishgan. Turkiston matbuoti nashrlarida uchrovchi iqtiboslar ham bu munosabatlarning bir dalili bo‘la oladi. Aslida, rus va xorij matbuotidan iqtiboslar berib borish mahalliy matbuot uchun senzura o‘rnatgan talablardan biri bo‘lgan. Ko‘pchilik muharrirlarning matbuot ochishga ruxsat olish uchun tayyorlagan dasturlarida mana shu band ham qayd etib o‘tilgan [Do‘stqorayev, 2009; 190]. Behbudiyning o‘zi ham muntazam ravishda tashqi davriy nashrlar bilan tanishib borganidek, “Oyina” uchun ulardagi eng ahamiyatli xabarlardan iqtiboslar olgan, masalan, “Oyina” jurnalining, 1914-yildagi № 27–62-sonlarida. “Tarjimon”, “Vaqt”, “Yulduz”, “Saboh”, “Quyosh”, “Chehranamo”, “Al-Hilol”, “Sho‘ro”, “Mulla Nasriddin”, “Islom majmuasi”, “Siroj u-laxbor” kabi vaqtli matbuot nashrlaridan keltirilgan iqtiboslarni jurnalning deyarli hamma sonida kuzatish mumkin. Ushbu ko‘chirib bosilgan materiallarning quyidagi yo‘nalishlarga ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Ta’lim va maorif mavzusidagi iqtiboslar. Bu mavzudagi ko‘chirma materiallarda chet o‘lkalarda joriy qilingan ta’lim tizimi haqida ma’lumotlar, olib borilgan yoki o‘tkazilayotgan islohotlar, maktab va maorif ishlariga ko‘proq urg‘u beriladi.

2. Musulmonlar hayotidan olingan iqtiboslar. Turli o‘lkalardagi musulmonlarning hayot tarzi, ularga munosabat, din ahkomlari, shariat peshvolari, muqaddas qadamjolar, dunyo musulmonlari hayotidan lavhalar aks ettirilgan maqolalar shular jumlasidandir.

3. Harbiy-siyosiy mavzudagi iqtiboslar. Bu turdagi iqtiboslarni harbiy-siyosiy yangiliklar, muxolifatlar, muhorabalar, islohotlar yoritilgan maqolalar tashkil etadi. Bu mavzudagi iqtiboslar jurnalda kamchilikni tashkil etadi.

Iqtiboslar, albatta, muhim ma’noga ega mavzulardan tanlangan. Mavzu ko‘lami jihatidan aytish kerakki, iqtibos sifatida, aksaran, ta’lim va musulmonlar hayoti aks ettirilgan maqolalarga murojaat qilingan. Misol uchun, “Siroj ul-axbori afg‘oniya”dan keltirilgan “A’molimiz yoinki murodimiz” [Behbudiy, 1913b] iqtibosi to‘y, bazm, ma’raka masoriflari haqida. Unda odamlar o‘zlari yemay-ichmay to‘plagan pulini to‘yga sarflashi, qarz ko‘tarib to‘y berishi va oqibatda qarzdan qutulish uchun joyini, bog‘ini, hatto ko‘rpa-to‘shak, kiyim-kechaklarni sotib xonavayron bo‘lib yurishlari devonalik deb baholangan: “...Oy, bu nima? To‘g‘risi bir nav’ devonalik emasmu? Subhanolloh, qarz qilib xalqg‘a osh bermoq aqlsizlik emasmu?” Bu mavzu matbuotda eng ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan va ko‘p bor yozilgan masalalardan hisoblanadi. Behbudiy bu iqtibosni keltirish bilan ushbu isrofgarchilik, dabdaba va ongsizlikning Turkistondan boshqa hududlarda yashovchi musulmonlar orasida ham avjga chiqqaniga ishora qilmoqchi bo‘lgan. Bu iqtibosning kimga mansubligi aytilmagan. “Oyina” iqtiboslarni ko‘pincha muallifsiz beradi. Sababi, bu anonimlik muallifni va muharrirni “tashvishdan forig‘ qiladi”, deb hisoblangan. Bundan tashqari, biror iqtibosning jurnalda qaysi munosabat bilan qayta chop qilinayotgani borasida idoraning izohlari uchramaydi. Muqoyasa uchun “Tarjimon” va “Oyina”ning iqtibos berish tartibini olib

qaraydigan bo'lsak, Gasprinskiy o'z gazetasida qayta bosayotgan iqtibosning manbasi, nashr yili va sonigacha ko'rsatib, kirish yoki so'ngso'z sifatida izoh ham yozib o'tadi. "Oyina" jurnalida bu kabi iqtibosning dastlab e'lon qilingan yili va sonini, izohini berish esa an'ana tusiga kirmaganligini ko'ramiz. Shu bois iqtiboslarning birinchi varianti bilan qiyoslab tekshirish imkoni bo'lmadi. Lekin "Oyina" bilan tashqi davriy nashrlarni uslub va til jihatdan tekshirish maqsadida, ularni umumiy aspektda qiyoslab o'tildi. Xususan, jurnalda bosilgan iqtiboslarning katta ulushini tatar matbuotidan olingan ko'chirmalar tashkil qiladi. Til jihatidan ular "Oyina" tanlagan "o'rta sheva"ga nisbatan mos kelgan, deb aytish mumkin. Behbudiyning o'zi tashqi nashrlarni tushunilish jihatidan ikki guruhga ajratib, "Tarjimon", "Ulfat", "Irshod", "Hayot" tili "Ozod", "Yulduz", "Nur" gazetalariga nisbatan yengilroq, deb ko'rsatadi. Va bu farqni muvofiqlashtirish uchun Rusiya musulmonlarini "bir shevayi vasatiyaya ittixoz etmak" [Behbudiy, 1906b] ig'a chaqiradi. Gasprinskiy ham ta'kidlaganidek, ko'pchilik gazetalarning "har biri biror turli shevada" [Gasprinskiy, 1906d] nashr bo'layotgani "umumiy lison"dan uzoqlashishga olib kelayotgandi. Lekin Gasprinskiy ham, Behbudiy ham til birligi masalasida yakdil bo'lsa-da, ular tanlagan "o'rta sheva" boshqa-boshqa edi. Bu farqni ular nashr etgan "Tarjimon" va "Oyina"ning tili yaqqol ko'rsatib beroladi:

"Ilm, hilm, maorif, izzat-nafs va haysiyat riyokorlig'a tabdil o'lmish edi. Bu so'zlar, balki og'u so'zlardir, lekin do'g'ri so'zlardir. Tarix yozan muarrix madhiya yozan mirzo dagildir" [Gasprinskiy, 1905b].

"Turkiston Osiyoi vusto va yoinki Turonzamindan iborat va turk qavmining muxtalif urug'lari ila maskun bo'lub, holi hozirda Turkistoni rusiy va Turkistoni chiniy qismlarig'a bo'linur" ("Oyina" jurnalining 1913-yil 1-sonidan).

Har ikki maqolaning uslubidan ham muharrirlarning milliy til xususiyatlari ta'siri kuchliligi anglashilib turibdi. "Tarjimon"da turk tili elementlari ustun bo'lsa, "Oyina"da forsiy-arabiy so'zlarni qo'llashga "o'chlik" seziladi. Gasprinskiy "Tarjimon" tilini sodda va ochiq, deb biladi. Behbudiy ham, aslida, "Tarjimon" muridi ekanini ta'kidlaydi, biroq "o'rta sheva" borasida boshqa yo'ldan boradi. U tanlagan "mo'tadil sheva" [Behbudxo'ja, 1909] turkiy va forsiy tilning oralig'idagi qorishiqlik edi (Uning o'zi yozishicha, bu yo'lda tajriba sifatida "Maktubotul atfol" nomli risola yozgan). Bizningcha, buning shaxsiy va umumiy sabablari bor. Birinchidan, Turkistonda xalq azaldan shu ikki tilda so'zlashib kelgan. Demak, Behbudiy turkistonliklar uchun moslab, shu yo'lni tanlagan. Ikkinchi tomondan, Behbudiyda forschaga moyillik ko'proq bo'lgan va u hech qachon fors tilidan uzoqlashib ketolmasdi. Buni uning o'zi ham ba'zi o'rinlarda ochiq aytib o'tadi [Baldauf, 2001; 45].

Bu mulohazalardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, til va shevaning turlichaligiga qarab, iqtiboslar ham ba'zan to'g'ridan to'g'ri berilgan yoki qisman moslashtirilgan. Ba'zida esa tarjimasi berilgan. Xususan, fors tilidagi maqolalar o'zidek e'lon qilinavergan. Arabiston, Misr nashrlaridan tanlangan iqtiboslarning esa tarjimasi berilgan. Xuddi shunday tarjima iqtibosga misol tarzida Abdusalom Al-Azmiyning "Oyina" uchun yuborgan "Ka'bayi muazzama va hajji sharif" maqolasini aytish mumkin [As-Samarqandiy, 1914]. Bu iqtibos Misrda chiqadigan "Al-Hilol" jurnalidan

o'zbekchaga o'girilgan. Maqolaning ichki nomlanishi "Ka'bayi muazzama"dir. Unda Ka'baning joylashish o'rni va arxitekturasi, xususan, bezaklari, jihozlari, qaysi sulton davrida qanday o'zgarishlar qilingani, hajar ul-asvad bilan bog'liq hodisalar, haj tartiblari, ehrom bog'lash tartiblari, hojilarga man etilgan ishlar haqida gap ketgan. "Oyina" muxlislari musulmonlar hayotiga oid chiqishlarni iliq qarshi olishgan. Jurnal muharririning chuqur diniy bilimlarga egaligi, bu mavzudagi maqolalarning saralab e'lon qilingani, oddiy xalq orasida mavjud dinga taskin sifatidagi yondashuvlar ham yuqoridagi fikrga omil bo'ladi. Diniy-siyosiy yoki diniy-ijtimoiy ruhdagi xabarlar imkoniyat darajasida yetarlicha e'lon qilingan. Faqat ayrim, tahririyatning o'zi maxfiy deb hisoblagan xabarlarni ko'z ilg'amas tarzda ba'zi maqolalardan keyingi davom sifatida berib ketilganiga guvoh bo'lish mumkin. Hech qanday alohida ishorasiz, nomsiz. Masalan, 1914-yil 18-sonida "Karkidan janob Abdulloh afandi yozadurlarki" xabari tugagan o'rinda "Idil" gazetasi muxbiri Abdurahmon Amirufning 4 yilga surgun qilingani xabari keltirib o'tilgan. Yoki 1913-yil 4-sonda berilgan "Xitoda va Jopuniyoda islomning intishori" maqolasi so'ngida "Quraysh jazirasida sobiq sadri a'zam Komil posho vafot bo'lubdur", degan qisqa xabarni ko'rish mumkin. Bular, bir qaraganda, avvalgi maqolaning davomidek tasavvur uyg'otish va senzorning e'tiborini ortiqcha tortmaslik uchun ham shunday qilingan, deb taxmin qilish mumkin. Jurnaldagi matnlar ham texnik jihatdan bir-biriga yaqin va gohida siqiq tarzda joylashtirib yuborilgan. Bu holatga o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy, moddiy taraflarini hisobga olgan holda baho berish lozim.

Miqdor jihatidan iqtibos olingan manbalar ko'proq "Tarjimon" va "Vaqt" gazetalariga to'g'ri keladi. "Tarjimon" turkistonlik ziyolilarni matbuotga havaslantirgan ilk nashrdir. Ziyo Said so'zlari bilan aytganda, "Tarjimon" gazetasining o'quvchilari ko'payishi bilan, jadidlarning matbuotga havasi kuchaydi [Ziyo, 1927; 35]. Undagi aksariyat maqolalar Turkiston jadidlarini doim ilhomlantirgan. "Oyina"da ham "Tarjimon"dan nashr qilingan xabar va maqolalar ko'p uchraydi. Xususan, "Oyina" siyosiy-harbiy mavzuda tanlagan maqolalardan biri "Tarjimon" gazetasidan olingan. Aslida, mavzu "Turk davlati nimaga mag'lub bo'ldi?" deya nomlangan bo'lsa-da, uning tagida "boshqa bir savol ham bor. Ul budurki: jumlayi islom davlatlari va butun millati islomiya na uchun tanazzul qildi?" Gasprinskiyning fikricha, hamma hodisalar uzviy bog'liqlikda kechadi. Ya'ni, turk davlati mag'lubiyati musulmon olamining tanazzuli bilan bog'liqdir: "...Mana, agar muning javobi tayin qilinsa, turk davlatining nima uchun tanazzul qilishi yaxshiroq ma'lum bo'lur". Shundan so'ng musulmonlarning o'tmishda olamshumul shuhrat egasi bo'lganliklari va qanday sabablarga ko'ra hozirgidek achinarli holga tushib qolganliklarini izohlashga o'tadi: "Umaroyi islom ko'b g'ofil edi, lekin ulamoyi islom ko'broq g'aflatda qolgan edi. Muhit va hayoti islomiya shundoq bir holg'a kelgan ediki, eng zolim bir shohg'a yoinki sultong'a "odil", eng johil bir mullog'a "olim", eng poraxo'r bir qozig'a "xodimi shar'i sharif", dushmanni ko'rmasdan qochganlarg'a "bahodir, qahramon", nohaq shahodat berganlarga "amin", aqlg'a va naqlg'a kelmagan afsonalarg'a "ta'lif", besh-o'n satr madhiya ilan xushomadgo'ylik qilganlarg'a "adib", yo'llarni bosub, yetimlarni yig'latgonlarg'a "og'a", bilar-bilmas turmasdan so'ylaganlarg'a "orif", ta'machilarg'a

“murshid”dek laqablarni taqishturmoqni “madoro” va “usuli muoshirat” hisob etib kundan kung‘a dunyomiz qorayibdur”. Mulohazalar shu tartibda, tarix va bugunni qiyoslash yo‘li bilan aytib borilgan. Ushbu maqola seriyali tarzda davom etgan. O‘z o‘rnida, “Tarjimon” ham “Oyina”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” kabi Turkiston matbuotidan iqtiboslar berib borgan. “Tarjimon” sahifalarida “Oyina”dan olib bosilgan iqtiboslarga “E’tirof” (1913, № 255), “Turkistonda saylovlar” (1913, № 266), “Buxoroda to‘ylar” (1913, № 278), “Milliy maishat” (1913, № 279), “Buxoro xabarlari” (1914, № 8), “Bir sunnat to‘yi” (1914, № 28), “Eng kerak va eng qimmat shay nadir?” (1914, № 28), “Favqulodda takfir” (1914, № 31) kabilarni misol qilish mumkin.

Yana bir tatar matbuoti hisoblangan “Vaqt” gazetasi bilan “Oyina” o‘rtasida ham keng hamkorlikni ko‘rish mumkin. “Vaqt”dan iqtibos qilib olingan “Vaqt” gazetasi “Oyina” haqinda na der” maqolasida mushtariylarni “Oyina” uchun obuna bo‘lishga va uni tarqatishga da’vat qilib chiqadi: “7-8 milyunlik Turkiston xalqi orasida o‘z shevalarinda birdan bir bo‘lgan bu ilmiy, adabiy majmuaning bu holda borishi shoyoni taassufdir. Bu majmua har xil mavzularda ilmiy maqolalar, she’rlar yozib o‘quvchilarining xeyli muhabbatlarini jalb etgan, yolg‘uz bir Turkistondagina emas, Istanbul va Hindistonda bo‘lgan turkistonli talabalar orasida ham muhabbat ila o‘qulganligi idoramizg‘a kelgan maktublardan anglashilgan edi” [““Vaqt” jaridasi”, 1915; 18]. “Vaqt” ulamo va yoshlarni “Oyina” uchun moddiy va ma’naviy ko‘makka chaqiradi. Ularning taklificha, shunday yo‘l tutilsa, majmua yildan yil o‘quvchi to‘plab o‘zini o‘nglab olishi mumkin. Bu maqolaning tili “Oyina”ga bir oz moslashtirilgan. “Vaqt” va “Oyina” tilining tafovutini ko‘rish maqsadida bu ikki nashrni o‘zaro qiyoslash lozim. Bevosita “Vaqt”dan aynan keltirilgan quyidagi parchada gazetaning til xususiyatlarini farqlab olish mumkin: “Bir jihatdan dinimizning qadr va e’tibori ortuvig‘a, ikkinchidan milliy va adabiy qiymatimizning ko‘tariluvina sabab bo‘lachaq bu ezgi marosimning yildan yil taravvij etilub muayyan bir suratka kiruvi taraqqiyot davrimizning eng ko‘ngulli bir sahifasin tashkil etsa kerak” [“Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)”, 1916]. Ko‘rinib turganidek, “Vaqt”ning tili “Oyina”dan soddaroq, yengilroq. Jurnalda keltirilgan iqtiboslar, albatta, “Oyina” tiliga moslangan. Umuman, bu an’ana o‘sha davrdagi barcha vaqtli matbuot nashrlariga taalluqli holatdir.

Iqtiboslar o‘zga kishining fikrlari bilan ta’sir o‘tkazish maqsadida qo‘l kelgan. Ya’ni, Turkiston musulmonlariga qardosh xalqlarning ibratli ishlaridan namuna sifatida ko‘rsatish, birodarlari hayotidagi muhim voqealardan xabardor etib turish, ularning fikri bilan tanishtirish kabi maqsadlar iqtibos qo‘llashning asosiy sabablaridan biri bo‘la oladi.

XULOSA

Behbudiy umri davomida millat bolalarini ilmli qilish, millatni g‘aflatdan uyg‘otish yo‘lida tolmay xizmat qildi. O‘zining ko‘plab chiqishlarida yoshlarga murojaat qildi, milliy birdamlikka chaqirdi. Shu o‘rinda Behbudiyning jadidchilik harakatining kenja avlod qatlami to‘g‘risidagi fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinli. Behbudiyga ko‘ra, jadidlarning yosh avlodi o‘rtasida g‘oyaviy jihatdan ixtilof bor

edi. Aynan ana shu ixtilof sabab xalq jadiddan yuz o'girdi. Behbudiy yoshlarni tezroq o'zaro kelishuv yo'lini topishga va yo'qotilgan xalq ishonchini qaytarishga chaqiradi. Chunki, "umummilliy g'oya" yo'lida bir bo'lib harakat qilmaslik millatning bo'linishiga va ayrim umummilliy loyihalarning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelishi mumkin edi.

Behbudiyning "umummilliy g'oya"si targ'iboti uchun milliy matbuot kerak edi. Jadidlar ana shunday matbuotga asos soldi. Jadid matbuoti tom ma'noda fikr almashish, ilg'or g'oya va fikrlarni targ'ib qilish, bahslashish maydoniga aylandi. Jadid matbuoti tom ma'noda demokratik qadriyatlarni o'zida aks ettirgan, fikrlar qarama-qarshiligini ko'tara oladigan, ijtimoiy-siyosiy mavzularda tanqid qila oladigan matbuot edi. Birgina Behbudiyning "Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatish yo'lida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir turli maqolalar e'lon qildi, bu yo'nalishda keng bahslar uchun minbar vazifasini o'tadi. Shu bilan birga, tashqi davriy nashrlarda ham faol ishtirok etdi. Shunisi achinarliki, Turkiston jadidlarining yetakchisi bo'lgan Behbudiyning o'lkadan tashqaridagi vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalari haligacha to'planib, tadqiq etilmagan va Behbudiy ijodini o'rganishda hozirgi tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abbos, M. (1887). Farangiston maktublari. *"Tarjimon" gazetasi*, 4.
2. Abdirashidov, Z. (2011). *Ismail Gasprinskiy i Turkistan v nachale XX veka: svyaz' – otnosheniya – vliyaniye*. Tashkent: Akademnashr.
3. Abdurashidxonov, M. (1917). Hurriyat berilmas, olinur. *"Najot" gazetasi*, 15.
4. Alimova, D.A., & Rashidova, D.A. (1998). *Makhmudkhodzha Bekhbudiy i yego istoricheskiye vozzreniya*. Tashkent: Ma'naviyat.
5. As-Samarqandiy, A.A. (1914). Ka'bai muazzama va hajji sharif. *"Oyina" jurnali,* 45, 46, 48.
6. Baldauf, I. (2001). *XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar*. Toshkent: Ma'naviyat.
7. Bauer, O. (1907). *Die Nationalitätenfrage und die Sozialdemokratie*. Vienna: Ignaz Brand.
8. Behbudiy, M. (1904). Iona. *"Tarjimon" gazetasi*, 16.
9. Behbudiy, M. (1906a). Haqiqat har tarafdan zuhur edar. *"Tarjimon" gazetasi*, 48.
10. Behbudiy, M. (1906b). Vahdati lison – dil birligi. *"Tarjimon" gazetasi*, 61.
11. Behbudiy, M. (1907). Gazeta nadur?. *"Tujjor" gazetasi*, 11.
12. Behbudiy, M. (1913a). Jug'rofiya chist?. *"Oyina" jurnali*, 2, 3, 5.
13. Behbudiy, M. (1913b). A'molimiz yoinki murodimiz. *"Oyina" jurnali,* 6-7, 130–132; 154–156.
14. Behbudiy, M. (1913d). Yer. *"Oyina" jurnali*, 10, 18.
15. Behbudiy, M. (1914a). Idoradan. *"Oyina" jurnali*, 15, 52.
16. Behbudiy, M. (1914b). Tarix va jug'rofiya. *"Oyina" jurnali*, 27-28.
17. Behbudiy, M. (1914d). Teatr nadur?. *"Oyina" jurnali*, 29.
18. Behbudiy, M. (1914e). Qasdi safar. *"Oyina" jurnali*, 31.
19. Behbudiy, M. (1914f). Tanqid – saralamoqdur. *"Oyina" jurnali*, 32, 621–623.
20. Behbudiy, M. (1914g). Sayohatlar... . *"Tarjimon" gazetasi*, 129.
21. Behbudiy, M. (1915). Xonandalar maktubidan. *"Oyina" jurnali*, 8.
22. Behbudiy, M. (1917). Haq olinur, berilmas. *"Haqiqat" gazetasi*, 22.
23. Behbudiy, M. (1999). Kitobi muntakhabi jug'rofiyai umumiy. B.Qosimov (Nashr. tayyorl.), *Tanlangan asarlar* (3-nashr). Toshkent: Ma'naviyat.

24. Behbudiy, M. (2006). *Tanlangan asarlar* (B.Qosimov (Tuzuv.), 3-n.). Toshkent: Ma’naviyat.
25. Behbudxo‘ja, M. (1904a). Pis’mo iz Samarkanda. *Turkiston viloyatining gazeti*, 8.
26. Behbudxo‘ja, M. (1904b). Ismoilbek hazratlari ila suhbat. *“Oyina” jurnali*, 49.
27. Behbudxo‘ja, M. (1905). Dil, dil, dil. *“Tarjimon” gazetasi*, 103.
28. Behbudxo‘ja, M. (1909). Turkistonda maktab lisoni. *“Tarjimon” gazetasi*, 14, 21.
29. Blaut, J.M. (1987). *The national question: Decolonizing the theory of nationalism*. London/ New Jersey: Zed Books Ltd.
30. Davis, H.B. (1967). *Nationalism and socialism: Marxist and labor theories of nationalism to 1917*. New York/London: Monthly Review Press.
31. Do‘stqorayev, B. (2009). *O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
32. E’tiroz. (1914). *Turkiston viloyatining gazeti*, 22.
33. Fitrat, A. (1915). Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdir. *“Oyina” jurnali*, 7.
34. Fotih, A. (2006). Ulug‘ millatchi haqida kichkina bir xotira. V knige M.Gosmanov (Red.), *Ismail Gasprinskiy* (s. 232). Kazan’: Zhyyen.
35. Gasprinskiy, I. (1883). Gazeta nadir?. *“Tarjimon” gazetasi*, 2.
36. Gasprinskiy, I. (1884). Mashaalloh... . *“Tarjimon” gazetasi*, 29.
37. Gasprinskiy, I. (1885). Turli usuli hukumat (va Inglitarra millat majlisi). *“Tarjimon” gazetasi*, 25.
38. Gasprinskiy, I. (1895). Tanqid yoki o‘lchov. *“Tarjimon” gazetasi*, 44.
39. Gasprinskiy, I. (1898). Rasm, shakl va plan. *“Tarjimon” gazetasi*, 47.
40. Gasprinskiy, I. (1904). Javob. *“Tarjimon” gazetasi*, 96.
41. Gasprinskiy, I. (1905a). Lison masalasi. *“Tarjimon” gazetasi*, 90.
42. Gasprinskiy, I. (1905b). Tarixi jadidai Turkiston. *“Tarjimon” gazetasi*, 110.
43. Gasprinskiy, I. (1906a). Umumiy lisoni adab. *“Tarjimon” gazetasi*, 37.
44. Gasprinskiy, I. (1906b). Turkiston ishlari. *“Tarjimon” gazetasi*, 100.
45. Gasprinskiy, I. (1906d). Til va lison yili. *“Tarjimon” gazetasi*, 142.
46. Gasprinskiy, I. (1908). Buxoroda na ko‘rdim?. *“Tarjimon” gazetasi*, 21.
47. Hablemetoğlu, N., & Kocaoğlu, T. (2001). Behbudi’nin Türkistan medeni muhtariyeti layihası. In T.Kocaoğlu (Ed.), *The reform movements and revolutions in Turkistan* (1900–1924) (pp. 436–466). Haarlem: SOTA.
48. Khabutdinov, A.Yu. (2002). Tatarskoye obshchestvennoye dvizheniye v rossiyskom soobshchestve, konets XVIII – nachalo XX vv. *Diss. dok. istorich. nauk*. Kazan’: Kazanskiy (Privolzhskiy) federal’nyy universitet.
49. Khalid, A. (1993). The politics of muslim cultural reform: Jadidism in Tsarist Central Asia. *PhD thes*. Madison, Wisconsin: University of Wisconsin–Madison.
50. Mahmud, V. (2007). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma’naviyat.
51. Mirmuhsin, Sh. (1915). Muharrir va matbuotimiz. *“Oyina” jurnali*, 9.
52. Muin, H. (1923). Mahmudxo‘ja Behbudiy. *“Uchqun” gazetasi*, 1.
53. Muin, H. (2010). *Tanlangan asarlar* (B.Do‘stqorayev (Tuzuv.)). Toshkent: Ma’naviyat.
54. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hazratlarining tuvg‘on kuni ila jumlai musulmon qardoshlarimizni tabrik etamiz. (1916). *“Vaqt” gazetasi*, 1955.
55. Pyaskovskiy, A.V. (1958). *Revolyutsiya 1905-1907 godov v Turkistane*. Moskva: Nauka.
56. Qosimov, B. (1994). *Maslakdoshlar*. Toshkent: Sharq.
57. Qosimov, B. (2002). *Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik*. Toshkent: Ma’naviyat.
58. Qosimov, B. (2005). *Ismoil Gasprinskiy va Mahmudxo‘ja Behbudiy*. N.Karimov (Muhr.), Ismoilbek Gasprinskiy va Turkiston (40–52-b.). Toshkent: Sharq.
59. Sa’diy, A. (1923-yil 10-dekabr). Behbudiy va uning tegrasiga yig‘ilgan yozuvchilar. “Turkiston” gazetasi.
60. Turdiyev, Sh. (1998). Rol’ Rossii v podavlenii dzhadidskogo dvizheniya (po materialam arkhiva SNB Uzbekistana). *Tsentral’naya Aziya*, *1*(13), 132–146.

61. Vaqt jaridasi "Oyina" haqida na der. (1915). *"Oyina" jurnali*, 53.
62. Ziyo, S. (1927). *O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar*. Toshkent–Samarqand: Turkiston davlat nashriyoti.

REFERENCES

1. Abbas, M. (1887). Letters from France. *Newspaper of 'The Translator'*, 4.
2. Abdirashidov, Z. (2011). *Ismail Gasprinsky and Turkistan in the early 20th century: Connections, relations, influence*. Tashkent: Akademnashr.
3. Abdurashidkhonov, M. (1917). *Freedom is not given, it is taken. Newspaper of 'Salvation'*, *15.*
4. Alimova, D.A., & Rashidova, D.A. (1998). *Mahmudkhoja Behbudi and his historical views*. Tashkent: Spirituality.
5. As-Samarqandi, A.A. (1914). *The Holy Kaaba and the noble Hajj. Journal of 'Oyina'*, *45*, 46, 48.
6. Baldauf, I. (2001). *Outlines of 20th-century Uzbek literature*. Tashkent: Spirituality.
7. Bauer, O. (1907). *The question of nationalities and social democracy*. Vienna: Ignaz Brand.
8. Behbudi, M. (1904). Iona. *Newspaper of 'The Translator'*, 16.
9. Behbudi, M. (1906a). The truth manifests itself from all sides. *Newspaper of 'The Translator'*, 48.
10. Behbudi, M. (1906b). Unity of language – unity of heart. *Newspaper of 'The Translator'*, 61.
11. Behbudi, M. (1907). What is a newspaper?. *Newspaper of 'Merchants'*, 11.
12. Behbudi, M. (1913a). What is geography?. *Journal of 'Oyina'*, 2, 3, 5.
13. Behbudi, M. (1913b). *Our goals or our aspirations. Journal of 'Oyina'*, *6–7*, 130–132; 154–156.
14. Behbudi, M. (1913c). The Earth. *Journal of 'Oyina'*, 10, 18.
15. Behbudi, M. (1914a). From the administration. *Journal of 'Oyina'*, 15, 52.
16. Behbudi, M. (1914b). History and geography. *Journal of 'Oyina',* 27-28.
17. Behbudi, M. (1914c). What is theater?. *Journal of 'Oyina'*, 29.
18. Behbudi, M. (1914d). Intention of travel. *Journal of 'Oyina'*, 31.
19. Behbudi, M. (1914e). Criticism is selection. *Journal of 'Oyina'*, 32, 621–623.
20. Behbudi, M. (1914f). *Travels… . Newspaper of 'The Translator'*, 129.
21. Behbudi, M. (1915). From the singer's letter. *Journal of 'Oyina',* 8.
22. Behbudi, M. (1917). Justice is taken, not given. *Newspaper of 'Truth'*, 22.
23. Behbudi, M. (1999). *The selected book of general geography.* In B.Qosimov (Ed.), *Selected works* (3rd ed.). Tashkent: Spirituality.
24. Behbudi, M. (2006). *Selected works* (B.Qosimov (Comp.), 3rd ed.). Tashkent: Spirituality.
25. Behbudkhoja, M. (1904a). A letter from Samarkand. *Turkistan Province Newspaper*, 8.
26. Behbudkhoja, M. (1914b). *A conversation with His Excellency Ismoilbek. Journal of 'Oyina'*, 49.
27. Behbudkhoja, M. (1905). *Heart, heart, heart. Newspaper of 'The Translator', 103.*
28. Behbudkhoja, M. (1909). The language of schools in Turkistan. *Newspaper of 'The Translator'*, 14, 21.
29. Blaut, J.M. (1987). *The national question: Decolonizing the theory of nationalism*. London/ New Jersey: Zed Books Ltd.
30. Davis, H.B. (1967). *Nationalism and socialism: Marxist and labor theories of nationalism to 1917*. New York/London: Monthly Review Press.
31. Dostqoraev, B. (2009). *History of journalism in Uzbekistan.* Tashkent: Publishing and Printing Creative House named after Gafur Gulam.
32. Fitrat, A. (1915). A nation without diligence and perseverance has no right to life. *Journal of 'Oyina'*, 7.
33. Fotih, A. (2006). A small memory about a great nationalist. In M.Gosmanov (Ed.), *Ismail*

Gasprinsky (p. 232). Kazan: Zhyyen.
34. Gasprinsky, I. (1883). *A rare newspaper?. Newspaper of 'The Translator', 2.*
35. Gasprinsky, I. (1884). Mashaallah... . *Newspaper of 'The Translator'*, 29.
36. Gasprinsky, I. (1885). Various methods of government (and the English national assembly). *Newspaper of 'The Translator'*, 25.
37. Gasprinsky, I. (1895). Criticism or measure. *Newspaper of 'The Translator'*, 44.
38. Gasprinsky, I. (1898). Image, form, and plan. *Newspaper of 'The Translator',* 47.
39. Gasprinsky, I. (1904). Answer. *Newspaper of 'The Translator'*, 96.
40. Gasprinsky, I. (1905a). Language matter. *Newspaper of 'The Translator'*, 90.
41. Gasprinsky, I. (1905b). The new history of Turkistan. *Newspaper of 'The Translator'*, 110.
42. Gasprinsky, I. (1906a). Common literary language. *Newspaper of 'The Translator'*, 37.
43. Gasprinsky, I. (1906b). Turkistan Affairs. *Newspaper of 'The Translator'*, 100.
44. Gasprinsky, I. (1906c). The year of language and speech. *Newspaper of 'The Translator'*, 142.
45. Gasprinsky, I. (1908). What did I see in Bukhara?. *Newspaper of 'The Translator'*, 21.
46. Hablemetoğlu, N., & Kocaoğlu, T. (2001). Behbudi's project on the civil autonomy of Turkistan. In T.Kocaoğlu (Ed.), *The reform movements and revolutions in Turkistan* (1900–1924) (pp. 436–466). Haarlem: SOTA.
47. Khabutdinov, A.Y. (2002). The Tatar social movement in Russian society: Late 18th – early 20th centuries. *DSc thes. hist*. Kazan: Kazan (Volga Region) Federal University.
48. Khalid, A. (1993). The politics of Muslim cultural reform: Jadidism in Tsarist Central Asia. *PhD thes*. Madison, Wisconsin: University of Wisconsin–Madison.
49. Mahmud, V. (2007). *Selected works.* Tashkent: Spirituality.
50. Mirmuhsin, Sh. (1915). Our editor and press. *Journal of 'Oyina'*, 9.
51. Muin, H. (1923). Mahmudkhoja Behbudi. *Newspaper of 'Spark'*, 1.
52. Muin, H. (2010). *Selected works* (B.Dostqorayev (Comp.)). Tashkent: Spirituality.
53. Objection. (1914). *Turkistan Province Newspaper*, 22.
54. Pyaskovsky, A.V. (1958). *The revolution of 1905-1907 in Turkistan*. Moscow: Science.
55. Qosimov, B. (1994). *Associates*. Tashkent: East.
56. Qosimov, B. (2002). *National awakening: Courage, enlightenment, devotion*. Tashkent: Spirituality.
57. Qosimov, B. (2005). Ismail Gasprinsky and Mahmudkhoja Behbudi. In N.Karimov (Ed.), *Ismailbek Gasprinsky and Turkistan* (pp. 40–52). Tashkent: East.
58. Sadiy, A. (1923, December 10). Behbudi and the writers gathered around him. *Newspaper of Turkistan*.
59. Turdiev, Sh. (1998). The role of Russia in suppressing the Jadid movement (Based on materials from the NSS archive of Uzbekistan). *Central Asia*, *1*(13), 132–146.
60. We congratulate all our Muslim brothers on the birthday of our Prophet Muhammad (peace be upon him). (1916). *Newspaper of 'Time'*, 1955.
61. What does the Newspaper of 'Time' say about Oyina?. (1915). *Journal of 'Oyina'*, 53.
62. Ziyo, S. (1927). *Materials on the history of the Uzbek periodical press*. Tashkent–Samarkand: Turkistan State Publishing House.